

ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALAR

Xorazm viloyatida ijtimoiy soha va iqtisodiy rivojlantirish uchun barcha mulkchilik shakllaridagi tashkilotlarning 2023- yil yanvar-sentabr oylarida asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalari hajmi 6 744,8 mlrd so‘mni tashkil qilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 95,4 % ni tashkil etdi.

Jami investitsiyalar hajmida markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi 15,7 %ni yoki 1 056,7 mlrd so‘mni tashkil etdi.

Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 5 688,0 mlrd so‘m yoki jami investitsiyalarning 84,3 %i o‘zlashtirildi.



Asosiy kapitalga investitsiyalar



Markazlashgan
investitsiyalar
1 056,7 mlrd so‘m

6 744,8 mlrd
so‘m
o‘sish sur‘ati
95,4 %

Markazlashmagan
investitsiyalar
5 688,1 mlrd so‘m

O‘zR kafolati
ostida xorijiy
kreditlar
420,2
mlrd so‘m

Jami xorijiy
investitsiya va
kreditlar
2 600,5
mlrd so‘m

To‘g‘ridan-
to‘g‘ri xorijiy
investitsiyalar
1 080,6
mlrd so‘m

Markazlashgan investitsiyalar

Moliyalashtirish manbalari

Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan investitsiyalar tarkibi, % da

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

Respublika byudjeti

8,5 %

91,1 %

Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi

1,0 %

93,4 %

Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi

0,0 %

0,0 %

O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar

6,2 %

120,1 %

Markazlashmagan investitsiyalar

Moliyalashtirish manbalari

Markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan investitsiyalar tarkibi, % da

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

Korxona mablag'i

24,6 %

99,9 %

Aholi mablag'lari

24,3 %

89,6 %

Boshqa xorijiy investitsiya va kafolatlanmagan kreditlar

38,6 %

115,9 %

Shu jumladan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar

32,3 %

115,1 %

Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarzlar

3,1 %

37,8 %

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida korxona va tashkilotlarning o‘z mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar – 1 661,0 mlrd so‘m yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 24,6 %ini tashkil etdi. Aholi mablag‘lari hisobidan jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 24,3 %i yoki 1 636,8 mlrd so‘mi o‘zlashtirildi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hisobidan o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 1 080,6 mlrd so‘mni tashkil etdi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 2,7 barobarni yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 16,0 %ni tashkil etdi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari bo‘yicha tarkibi, mlrd so‘m

Respublika byudjeti - 569,2 mlrd so‘m



Suv ta’minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg‘armasi-67,3 mlrd so‘m



Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi-0,0 mlrd so‘m



O‘z.Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar-420,2 mlrd so‘m



Korxona mablag‘lari-1 661,0 mlrd so‘m



Aholi mablag‘lari-1 636,8 mlrd so‘m



To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar-2 180,3 mlrd so‘m



Tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari-210,0 mlrd so‘m



Shuningdek, tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari hisobidan 210,0 mlrd so‘m (jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 3,1 %ini tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 37,8 %ni tashkil qildi), O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar – 420,2 mlrd so‘m (6,2 % va 120,1 %ga ko‘paydi), boshqa xorijiy investitsiya va kafolatlanmagan kreditlar 2 180,3 mlrd so‘m (32,3 % va 115,1 % punktga ko‘paydi), Respublika byudjeti mablag‘lari hisobidan - 569,2 mlrd so‘m (8,4 % va 91,1 %ga kamaydi), suv ta’minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg‘armasi hisobidan - 67,3 mlrd so‘m (1,0 % va 93,4 % punktga kamaydi) miqdorida asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirildi.

**2023- yil yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar bo‘yicha
asosiy kapitalga investitsiyalar**

Shahar va tumanlar	hajmi, mlrd so‘m	o‘sish sur’ati	viloyatdagi ulushi
Urganch shahri	1712,9 mlrd so‘m	81,7 %	25,4 %
Xiva shahri	234,8 mlrd so‘m	65,8 %	3,5 %
Bog‘ot tumani	377,2 mlrd so‘m	122,5 %	5,6
Gurlan tumani	283,6 mlrd so‘m	77,3 %	4,2 %
Qo‘siko‘pir tumani	704,3 mlrd so‘m	135,9 %	10,4 %
Urganch tumani	522,4 mlrd so‘m	97,5 %	7,7 %
Hazorasp tumani	397,9 mlrd so‘m	99,1 %	5,9 %

XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Shahar va tumanlar

hajmi,
mlrd so'm

o'sish sur'ati

viloyatdagi
ulushi

Tuproqqa'l'a tumani

348,6
mlrd so'm

150,4 %

5,2 %

Xonqa tumani

433,1
mlrd so'm

79,4 %

6,4 %

Xiva tumani

512,5
mlrd so'm

118,2 %

7,6 %

Shovot tumani

487,1
mlrd so'm

106,0 %

7,2 %

Yangiariq tumani

408,2
mlrd so'm

86,7 %

6,1 %


Yangibozor tumani

322,1
mlrd so'm

94,7 %


4,8 %

2023- yil yanvar-sentabr oylarida investitsiyalarning o'sish sur'atlari, %da




Asosiy kapitalga investitsiyalarning yuqori o'sish sur'atlari quyidagi shahar va tumanlarda kuzatildi: Qo'shko'pir tumanida – 135,9 % (asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 704,3 mlrd so'm), Tuproqqa'l'a tumanida – 150,4 % (348,6 mlrd so'm), Xiva tumanida – 118,2 % (512,5 mlrd so'm), Bog'ot tumanida – 122,5 % (377,2 mlrd so'm).

Shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar, mlrd so'm



Asosiy kapitalga investitsiyalarning viloyat bo'yicha yuqori ulushi quyidagi shahar va tumanlarda kuzatildi: Urganch shahrida – 25,4 % (asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 1712,9 mlrd so'm), Xiva tumanida 7,6 % (512,5 mlrd so'm), Qo'shko'pir tumanida 10,4 % (704,3 mlrd so'm).


Shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalar



Aholi jon boshiga asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar 2023- yilning yanvar-sentabrida 3 422,2 ming so'm yoki 93,7 % ni tashkil etdi.


Aholi jon boshiga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi bo'yicha yuqori ko'rsatkich Urganch shahriga to'g'ri kelib, 11 328,4 ming so'mni yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 79,9 %ni tashkil etdi. Xonqa tumanida 7 416,5 ming so'm (yoki 261,9 %) va Qo'shko'pir tumanida 4 532,3 ming so'm (yoki 154,8 %) darajada qayd etildi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi (%da)



Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida viloyatda qurilish-montaj ishlaring ulushi 53,2 %, mashina va uskunalar sotib olish xarajatlari – 40,3 %, boshqa xarajatlarning ulushi 6,5 %ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar,mlrd so‘m





XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalarni o'zlashtirish: qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 768,3 mlrd so'm yoki jami investitsiyalarning 11,4 %, ishlab chiqarish sanoati – 2 009,0 mlrd so'm (29,8 %), qurilish – 320,3 mlrd so'm (yoki 4,7 %), ulgurji va chakana savdo, avtotransport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash – 206,0 mlrd so'm (yoki 3,1 %), ta'lif – 190,1 mlrd so'm (yoki 2,8 %) va boshqa faoliyat turlari – 1 263,6 mlrd so'm (yoki 18,7 %).

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlar

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida 2 600,5 mlrd so'm o'zlashtirilib (dollar ekvivalentida 222,1 mln AQSH dollari), o'tgan yilning mos davriga nisbatan 115,9 %ni tashkil qildi.

Xorijiy investitsiyalar va kreditlarning umumiyligida xorijiy investitsiyalar 1 082,0 mlrd so'mni tashkil etdi, shuningdek, 1 518,5 mlrd so'm xorijiy kreditlarga to'g'ri keldi.

Joriy davrda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning umumiyligi hajmidan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar 1 080,6 mlrd so'mni, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar – 420,2 mlrd so'mni, boshqa xorijiy investitsiya va kafolatlanmagan kreditlar – 2 180,3 mlrd so'mni tashkil etdi.

Xorijiy investitsiya va kreditlarning eng katta ulushi Urganch shahriga to'g'ri kelib, jami xorijiy investitsiya va kreditlardagi ulushi 21,8 %ni ta'minladi, Qo'shko'pir tumanida -13,7 %, Xiva tumanida -14,1 %, Shovot tumanida -10,5 % darajada kuzatildi.



Xorijiy investitsiya va kreditlar

	<i>Xorijiy investitsiya va kreditlarni o'zlashtirishi, mlrd so'm</i>		<i>Xorijiy investitsiya va kreditlarni o'zlashtirishi, nisbatan %da</i>	
	<i>Jami:</i>	<i>Shu jumladan, kreditlar:</i>	<i>Jamiga:</i>	<i>Asosiy kapitalga investitsiyalar:</i>
Xorazm viloyati	2 600,50	1 518,50	100,0	38,6


shahar va tumanlar:

Urganch sh.	567,0	196,1	21,8	33,1
Xiva sh.	91,5	57,3	3,5	39,0
Bog'ot	97,3	97,3	3,7	25,8
Gurlan	31,1	31,1	1,2	11,0
Qo'shko'pir	356,5	356	13,7	50,6
Urganch	201,7	201,7	7,8	38,6
Hazorasp	20,4	20,4	0,8	5,1
Tuproqqa'l'a	23,6	23,6	0,9	6,8
Xonqa	150,1	150,1	5,8	34,7
Xiva	366,1	366,1	14,1	71,4

Shovot	274,2	-	10,5	56,3
Yangiariq	233,2	15,1	9,0	57,1
Yangibozor	187,8	3,7	7,2	58,3

Xorijiy investitsiya va kreditlarning jami asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalardagi ulushi 38,6 %ni tashkil qildi.

Xorijiy investitsiya va kreditlarni o‘zlashtirish (mlrd so‘m)



Jami o‘zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlar umumiyligi hajmiga nisbatan O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar 6,2 % yoki 420,2 mlrd so‘mni, xorijiy investitsiya va kreditlar – 38,6 % yoki 2 180,3 mlrd so‘mni, shundan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya 1 080,6 mlrd so‘mni tashkil qildi.



XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

**Xorazm viloyati statistika boshqarmasi
Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo‘limi**
Nashr uchun mas’ul: R.Atadjanov
Telefon: (62) 224-65-22